

## **AFG‘ON MUHOJIRLARINING TURKIYAGA MIGRATSIYASI TARIXIY SABABLARI (1979-2000-yillar)**

**Axmadjonov Nurislom Baxtiyorjon o‘g‘li**

ToshDSHU magistranti

([nur\\_033196@mail.ru](mailto:nur_033196@mail.ru))

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqola afg‘on xalqining migratsiyaga nisbatan qarashlarini aniqlashga qaratilgan bo‘lib, 1979-yillardan boshlab Afg‘onistonda yuz bergan muammoviy voqealar fonidagi afg‘on xalqining Turkiyaga migratsiyasi masalalari yoritilgan. Shu maqsadda, maqola tadqiqotlari asosan afg‘on muhojirlarining ijtimoiy-demografik xususiyatlarini aniqlash va uni yoritib borish hamda migratsiya sabablari hamda jarayonlarini o‘rganishdan iborat.*

***Tayanch so‘zlar:** Afg‘oniston, Sovet bosqini, fuqoralar urushi, Tolibon, Turkiya, Pokiston, migratsiya, muhojir.*

## **HISTORICAL REASONS FOR THE MIGRATION OF AFGHAN IMMIGRANTS TO TURKEY (1979-2000)**

**Nurislom Akhmadjonov**

Master of Tashkent State University of Oriental Studies

([nur\\_033196@mail.ru](mailto:nur_033196@mail.ru))

### **ABSTRACT**

*This article is aimed at determining the views of the Afghan people on migration, and the issues of the migration of the Afghan people to Turkey and against the background of the problematic events that took place in Afghanistan since 1979. For this purpose, the research of the article mainly consists of identifying and clarifying the socio-demographic characteristics of Afghan immigrants, as well as studying the reasons and processes of migration.*

***Key words:** Afghanistan, Soviet Invasion, Civil War, Taliban, Turkiye, Pakistan, migration, immigrant.*

## **ИСТОРИЧЕСКИЕ ПРИЧИНЫ МИГРАЦИИ АФГАНСКИХ МИГРАНТОВ В ТУРЦИЮ (1979-2000 ГГ.)**

**Нуриллом Ахмаджонов**

Магистрант ТашГУВ

([nur\\_033196@mail.ru](mailto:nur_033196@mail.ru))

## **АННОТАЦИЯ**

*Данная статья направлена на определение взглядов афганского народа на миграцию, и вопросы миграции афганского народа в Турцию и на фоне проблемных событий, происходивших в Афганистане с 1979 года. С этой целью исследование статья в основном состоит из выявления и уточнения социально-демографических характеристик афганских иммигрантов, а также изучения причин и процессов миграции.*

**Ключевые слова:** Афганистан, Советское вторжение, гражданская война, Талибан, Турция, Пакистан, миграция, иммигрант.

## **KIRISH**

Afgʻoniston “xalqaro terrorizm”ni kun tartibiga olib chiqqan Al-Qoida, Tolibon, ISHID kabi radikal tashkilotlar oʻz bazalarini qurgan davlatlardan biri hisoblanib, korrupsiya, poraxoʻrlik, ijtimoiy-madaniy diniy erroziya, diniy, etnik va mafkuraviy moyillik bu mamlakatning bir qismiga aylandi. Boshqa tomondan giyohvand moddalar muammosi ham hamma narsaga chuqur taʼsir koʻrsatdi. Mamlakatda narkobaronlar va urush ishtirokchilari muhim oʻrinni egallar edi. Ana shu xususiyatlarni hisobga olgan holda Afgʻoniston doimiy ravishda NATO va Birlashgan Millatlar Tashkiloti kabi xalqaro tashkilotlarning kun tartibida boʻlgan. Afgʻoniston duch kelayotgan muammolarning yana bir eng muhim sababi yer osti boyliklari boʻyicha dunyoning yetakchi besh davlatlarining raqobat maydoniga aylanganligi edi. Yer osti boyliklaridan tashqari jahon litiy va uran zahiralarining 30 foizi Afgʻonistonda joylashgan<sup>1</sup>.

Migratsiya Afgʻoniston tarixining muhim qismi boʻlgan. Manbaalar ham Afgʻonistondan Eron va Pokistonga asrlar davomida afgʻon muhojirlari koʻchib kelganini koʻrsatadi. 1850-yillarda minglab hazora muhojirlari tabiiy ofatlar va boshqa inqirozlardan qutulish uchun Eron Islom Respublikasiga koʻchib oʻtgan. Maʼlumki, 1880-1903 yillar oraligʻida 15 ming afgʻon oilalari Eronning Mashhaddan sharqda joylashgan Torbat-e-Jom mintaqasiga kelib joylashadi.<sup>2</sup>

Afgʻoniston haqiqatan ham rivojlanmagan davlatlar qatoriga kiradi. Mamlakatning asosiy qismi qishloq xoʻjaligi bilan shugʻullanadi. Dengizdan uzoqda joylashganligi sababli, qurgʻoqchilik odatda hukmronlik qiladi. Shuning uchun odamlar bir joydan ikkinchi joyga koʻchib oʻtishlari kerak va ular atrofdagi yoki yaqin viloyatlarni tanlashadi. Afgʻonistonda viloyatlararo ichki migratsiyaning yana

<sup>1</sup> Turton, D. ve P. Marsden 2002 Taking Refugees for a Ride? The Politics of Refugee Return to Afghanistan. AREU Issues Paper Series, Afghanistan Research and Evaluation Unit, Kabul.

<sup>2</sup> Abbasi-Shavazi, M.J., Glazebrook, D., Jamshidiha, G., Mahmoudian, H. and R. Sadeghi. (2005). Return to Afghanistan?. A Study of Afghans Living in Zahedan. Kabil: AREU.

bir sababi urush va ishsizlikdir. Ushbu migratsiya doimiy yoki vaqtinchalik bo'lishi mumkin. O'zlari yashayotgan viloyatlarda urush tugasa, ba'zilar qaytadi, boshqalari esa o'z viloyatlarining ijtimoiy-madaniy sharoitiga ko'nikib, eski joylariga qaytmaydi. Qolaversa, ular yangi joylarda turmush qurganlari va shu tariqa yangi qarindoshlik rishtalari o'rnatganlari uchun ko'chib kelgan viloyatda hayotlarini davom ettirmoqdalar.<sup>3</sup>

Mazkur maqolada XX asr oxiriga kelib, Turkiya siyosati, iqtisodi va xavfsizlik tizimlariga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan afg'on migratsiyaning tavsifi ko'rib chiqiladi. Tadqiqot o'be'kti sifatida afg'on muhojirlarining Turkiyaga migratsiyasi tanlangan.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Afg'oniston bir asrdan ortiq vaqtdan beri kam daromadli mamlakat bo'lib kelgan. Ayniqsa, 1960—70-yillarda sanoatlashtirishga e'tibor berilmagan. Oqibatda afg'on aholisi ish bilan ta'minlash imkoniyatlarining yetarli emasligiga duch keldi. Natijada, 1973-yildagi neft narxlarining tez fursatlarda o'sishi afg'on ishchilarining Pokiston Islom Respublikasi, Eron Islom Respublikasi va Yaqin Sharqning boshqa mamlakatlariga ko'plab ko'chishiga olib keldi.<sup>4</sup> Buning natijasida Pokiston Islom Respublikasida ishchilar soni ortishi sababli afg'on muhojirlari neftga boy Fors ko'rfazi Arab davlatlariga ko'chib ketishga majbur bo'ldi. Eron Islom Respublikasida ish haqining nisbatan yuqoriligi va Afg'onistonda davlat soliqlarining oshishi ham o'sha paytda xorijga ish izlayotgan afg'onlar uchun hal qiluvchi omil bo'lgan. Natijada yuz minglab afg'on mehnatkashlari Sovet qo'shinlari bosqinidan oldin Afg'onistondan Eron Islom Respublikasiga ko'chib ketishdi. Endilikdagi kun tartibida esa Pokistondan Turkiyaga migratsiya masalasi turar edi. Bir qancha tadqiqotchilar tomonidan ushbu masalada ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Masalan, Turkiyaning Ege universiteti doktori Hande Erol hamda tadqiqotchi Abuzar Muhammad Alining<sup>5</sup> "Reasons for the Migration from Afghanistan to Turkey: Aegean region example" maqolasida asosan og'zaki tarix metodologiyasi qo'llangan. Bunda tadqiq etilayotgan mavzu yuzasidan aholidan intervyu usuli orqali foydalanilgan. Shuningdek maqolani o'rganish asnosida ma'lumotlarning asosiy qismi statistik tahlil qilib borilgan va ko'pincha ma'lumotlarning sifatiga ta'sir ko'rsatib tadqiqotni faqat raqamlardan tashkil topganligini ko'rsatdi. Biz tomonimizdan olib boriladigan tadqiqotda esa asosan tizimli tahlil usulidan foydalanilgan

<sup>3</sup> Watandar, S. (2020). Faryab Bölgesi. Erişim Adresi: <https://baztab.news/source/154>.

<sup>4</sup> Kronenfeld, D. A. (2008). Afghanrefugees in Pakistan İslam Cumhuriyeti: Not allrefugees, not always in Pakistan İslam Cumhuriyeti, not necessarilyAfghan? *Journal of Refugee Studies*, 21(1), 43–63.

<sup>5</sup> H.Erol, Abuzar Muhammad Ali, "Reasons for the Migration from Afghanistan to Turkey: Aegean region example"

Ma'lumki, Shimoliy Afg'onistondan Turkiyadan oldin Pokiston Islom Respublikasiga Sovetlar istilosidan oldin ham migratsiya bo'lgan va ikki davlat o'rtasidagi mavsumiy migratsiya misollari buni tasdiqlaydi.<sup>6</sup> 1973-yilda neft narxining keskin oshishi ko'plab afg'on mehnat muhojirlarining Pokiston Islom Respublikasi, Eron Islom Respublikasi hamda Turkiya va boshqa Yaqin Sharq mamlakatlariga ko'chib o'tishiga sabab bo'ldi. Shuning uchun ham Osiyo davlatlaridan Yaqin Sharqqa mehnat migratsiyasi tezlashdi.<sup>7</sup> Neft narxining ko'tarilishi davrida afg'onlarning Eron Islom Respublikasi va Pokistonga qonuniy immigratsiyasi arzon ishchi kuchidan foydalangani uchun har ikki davlatda manfaatlariga mos edi. Eron Islom Respublikasidagi afg'onlar muhojirlari qurilish, g'isht zavodlari va fermer xo'jaliklarida ishlagan va Eron Islom Respublikasidagi oylik maoshdan ancha past maosh olgan.<sup>8</sup>

Yuqorida biz Pokiston Islom Respublikasi hamda Eron Islom Respublikasini ko'p bora urg'u berganligimizning sababi, afg'on migrantlari dastlab Turkiyaga chiqib ketishidan oldin ushbu davlatlarga migratsiya qilishlariga to'g'ri kelgan. Fikrimizcha, bu **birinchidan**, diniy jihatdan yaqinligini bo'lsa, **ikkinchidan**, hududiy jihatdan qulayligi edi.

## **NATIJALAR**

**Nega aynan Turkiya tanlandi?** Hozirgi vaqtda Turkiya o'zining geografik joylashuvi tufayli hamda migratsiya jarayonlarini eksport qilayotgan mamlakatlarga yaqinligi hamda Yevropa Ittifoqining migratsiya oqimlariga munosabati kabi omillar tufayli xalqaro migratsiyada kun sayin muhim davlatga aylanib bormoqda.

Tarixan, SSSR 1978-yil 5-dekabrda "SSSR-Afg'oniston do'stlik shartnomasi" asosida 1979-yilda Afg'onistonga bostirib kirdi va hokimiyatni sovet tarafdori Babrak Karmal o'z qo'lga oldi. Bosqindan keyin bu mahalliy aholiga nisbatan reaksiyaga sabab bo'ldi. Ular orasida pushtunlar, hazoralar, tojiklar va turklar ko'proq bo'lgan. Asosan shia bo'lgan hazoralar Erondan boshpana topgan. 1982-yil fevral oyidagi ma'lumotlarga ko'ra, Pokistondan boshpana topgan qochqinlar soni 3 milliondan oshgan.<sup>9</sup> Natijada Pokiston va Erondagi afg'on qochqinlarining ahvoli xalqaro muammoga aylandi. O'z navbatida qochqinlar Turkiyaning Islomobod va Tehrondagi Turkiya vakolatxonalariga yashash va boshpana huquqi yuzasidan jamoaviy va individual arizalar bilan murojaat

<sup>6</sup> Stigter, E. (2006). Livelihoodsuponreturn: afghanmigratorystrategies - an assessment of repatriation and sustainable return in response to the convention plus. *Refugee Survey Quarterly*, 25(2), 109–122.

<sup>7</sup> Castles, S. and Miller, M. (2003). *Göçler çağı modern dünyada uluslararası göç hareketleri*, (trs. Bülent Uğur Bal ve İbrahim Akbulut). İstanbul: İstanbul Bilgi Üniversitesi Press.

<sup>8</sup> Haideh Moghissi and Afsaneh Ashrafi, "Afghans in Iran: Asylum Fatigue Overshadows Islamic Brotherhood," *Global Dialogue* 4.4 (2002)

<sup>9</sup> <https://www.tokattan.net/2021/02/afganistandan-tokata-bir-goc-hikayesi.html>

qilishgan. Biroq, bu talablar boshqa qochqinlar oqimiga aylanishi mumkinligidan qoʻrqish bilan qabul qilinmadi. Pokistondagi qochqinlar lagerlarida oʻzbek, turkman, qirgʻiz va qozoqlardan tashkil topgan turkiy guruhlar mavjudligi esa Turkiyaning oʻsha davrdagi prezidenti Kenan Evrenning diqqat eʼtiborini tortdi.

## **MUHOKAMA**

**Turkiyaga yoʻl ochildi(mi?).** Turkiya, SSSR qoʻshinlarini kiritgandan soʻng, xalqaro tashkilotlar huzurida Afgʻoniston uchun tashabbus koʻrsatdi hamda muammoning hal etilishi uchun barcha siyosiy yordamini berdi, Qizil yarim oy va gumanitar yordam tashkilotlari orqali qochqinlarga insonparvarlik yordami yetkazdi.

1981-yil 22-27-noyabr kunlaridagi Pokistonga rasmiy tashrifi davomida turk delegatsiyasiga Pokiston rasmiylari tomonidan afgʻon qochqinlar lagerlari koʻrsatilib, sovet istilosi natijasida yuzaga kelgan insoniyat fojiasi va uning iqtisodiy oqibatlarini koʻrsatish, chet el yordamlarini amalga oshirish hamda kerak boʻlganda qochqinlar muammosini xalqaro jamoatchilikka eʼlon qilish maqsadida tanishtirildi. Turkiya prezidenti Kenan Evran safarning ikkinchi kuni 1981-yil 24-noyabr kuni Peshovar yaqinidagi 7 ming kishilik “Nosir Bog” afgʻon qochqinlar lageriga tashrifi chogʻida Shimoliy Afgʻoniston viloyatlari Islom ittifoqi turk partiyasi raisi va Afgʻoniston deputati Abdulkarim Mahdum<sup>10</sup> bilan uchrashdi.<sup>11</sup> Kenan Evran ushbu afgʻon qochqinlarining “Turkiyadan boshpana soʻramoqchi ekanliklarini” oʻz koʻzi bilan koʻrib ransi millatga mansub afgʻon oilalarni Turkiyaga qabul qilish toʻgʻrisidagi hujjatni imzoladi. Shuningdek, Prezident Kenan Evrenning Pokistonga tashrifidan soʻng, turk millatiga mansub qochqinlarni olib kelish, jumladan, qochqinlarni joylashtirish, ularni samarali qilish, oʻqitish va Turkiya fuqaroligini olish maqsadida birinchi marta “2641-sonli qonun” qabul qilindi.<sup>12</sup>

Afgʻon qochqinlarning Turkiyaga koʻchirilishi 366 kishilik birinchi afgʻon migrantlari karvoni dastlab Adana shahriga 1982-yil 3-avgust kuni amalga oshirildi.<sup>13</sup>

<sup>10</sup> Afgʻon turklarining yetakchisi Abdulkarim Mahdum 1942-yilda Afgʻonistonning Shibirgʻon viloyatining Qizilayak qishlogʻida tugʻilgan. 1968-yilda yoshligida Juzjon viloyatidan deputat etib saylangan. Afgʻon podshohi Zohirshoh davrida ikki muddat parlament aʼzosi boʻlgan Mahdum, Shimoliy mintaqada yashovchi turk xalqi uchun xizmat qilgan. “Ozod Turkiston” partiyasini tashkil etishda faol ishtirok etdi. Sovet qoʻshinlari Afgʻonistonga bostirib kirgandan soʻng Dovudxon davridagi siyosiy faoliyati uchun hibsga olingan. U Babrak Karmal davridagi umumiy amnistiyadan foydalanib, oila aʼzolari bilan Pokistondan panoh topgan. Siyosiy va mustaqillik faoliyatini shu yerda ham davom ettirdi va barcha qochqin afgʻon turklari yigʻilgan “Turk partiyasi”ni tuzdi. U Afgʻonistondagi mujohid guruhlarini qoʻllab-quvvatlagan. Mahdum Turkiya hukumati huzurida tashabbus koʻrsatdi va barcha turk qochqinlarining Turkiyaga qabul qilinishi uchun harakat qildi. Uning arizasi oʻsha paytdagi prezident Kenan Evren tomonidan qabul qilingan. 1982-yilda 4500 nafar turk millatiga mansub afgʻon muhojirlarining Turkiyaga kelishiga asos boʻlgan turkmanlar yetakchisi Abdulkarim Mahdum 2019-yilda Afgʻonistonning Juzjon viloyati Qizilayak qishlogʻida vafot etgan.

<sup>11</sup> Haziraylan Emrullah Öztürk, “Türk asilli afgan mültecilerinin 12 eylül dönemi’nde iskân ve istihdami” Ankara 2014. s. 71

<sup>12</sup> Haziraylan Emrullah Öztürk, “Türk asilli afgan mültecilerinin 12 eylül dönemi’nde iskân ve istihdami” Ankara 2014. s. 76

<sup>13</sup> <https://www.tokattan.net/2021/02/afganistandan-tokata-bir-goc-hikayesi.html>

Birinchi guruhda kelgan 161 kishilik o‘zbek guruhi Gaziantepga yuborildi. Turkmanlar yetakchisi Abdulkarim Mahdum ham bo‘lgan 205 kishilik turkman guruhi Tokat shahriga jo‘natildi.<sup>14</sup>

Shunday qilib, Afg‘onistonda Pokistonga undan so‘ng Turkiyaga ko‘chib o‘tgan jami bo‘lib 4163 nafar o‘zbek, turkman, qirg‘iz va qozoq oilalaridan iborat afg‘on migrantlari Afg‘onistondagi mintaqaviy va iqlim sharoiti, kasb-hunar va san‘atini hisobga olgan holda Turkiyaning Tokat, Gaziantep, Hatay, Urfa, Van va Kayseri viloyatlariga joylashtirilib, ular uchun qulay sharoit yaratib beriladi. E‘tiborlisi shuki, 1980-yillarning boshidan buyon ko‘plab afg‘on muhojirlariga mezbonlik qilib kelayotgan Turkiya, bu muhojirlarning Yevropa davlatlariga yetib borishi uchun tranzit mamlakat sifatida o‘rin olgan.(1-rasm)



1-rasm

## XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish lozimki, Afg‘on migratsiya jarayonining kelib chiqish tarixi o‘z navbatida **birinchidan**, 1979-yil SSSR qo‘shinlarining mamlakatga kirishi, **ikkinchidan**, Afg‘onistonda Tolibonning 1996-yil hamda 2021-yilda hokimiyatini o‘rnatishi, **uchinchidan**, 2001-yilda “Al-Qoida”ning AQSHdagi terakti bo‘ldi. Bu davrlarda migratsiya asosan iqtisodiy sabablarga ko‘ra sodir bo‘lgan. Bu omil keyingi davrlarda afg‘on migratsiyasining asosiy sabablaridan biri sifatida davom etdi. Biroq keng ko‘lamli ukupatsiya va urushlar tufayli migratsiya tezligi oshib, miqdori va natijalari o‘zgardi.<sup>15</sup>

Afg‘onistonda odamlar iqtisodiy sabablarga ko‘ra va xavfsizligini asrash uchun o‘z yashash joylarini ixtiyoriy yoki majburiy o‘zgartirishga majbur bo‘lganlar. Muhojirlik migratsiyasi og‘ir jarayon bo‘lsa-da, muhojirlarga yanada qulay bo‘lgan yashash joylarni yaratish, hayotlarini davom ettirish va yangi ijtimoiy hayotni yaratish imkonini beradi. Biroq Pokiston va Eron bir tarafdin muhojir afg‘onlarga e‘tibor qaratmadi. Shuningdek, Afg‘oniston xalqi duch kelgan bu vaziyat xalqaro hamjamiyatning e‘tiborini tortmadi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Qochqinlar

<sup>14</sup> Cumhuriyet Gazetesi, 5 Augustos 1982

<sup>15</sup> Geyik, Y, S. (2018). Goch ve Afganlar “Istikrarli Mülteciler”. The Journal of Migration Studies, 4(2), 128-159.

bo'yicha Oliy Komissarligining 1997-yildagi hisobotlariga ko'ra, 1996-yil oxirida Tolibon hujumlari paytida ko'chirilgan afg'onlar uchun chegaralarini yopgan Pokiston, O'zbekiston va Tojikiston kabi davlatlarni ushbu usulni qo'llagan davlatlar qatoriga kiritgan (UNHCR, 1997). Lekin bunga bir qancha sabablar bore edi. **Birinchi**dan, Tojikistonda fuqarolar urushi ro'y berayotgandi. **Ikkinchi**dan, O'zbekiston bunday muhojirlarni qabul qilishgan ham moddiy jihatdan ham iqtisodiy jihatdan qurbi yetmasdi. Shuning uchun ham bunga e'tibor qaratmagani tabiiy hol edi.

Aslini olganda, qochqinlar oqimi, Turkiya tashkil topgan dastlabki yillardan beri vaqti-vaqti bilan duch kelgan muammolardan biri hisoblanadi. Turkiya geografik joylashuvi, tarixiy aloqalari va demokratik tuzilishi tufayli Yevropa mamlakatlariga, ayniqsa Yaqin Sharqdan kelgan muhojirlar uchun tortishish markazi va tranzit yo'li sifatida ko'riladi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Qochqinlar bo'yicha Oliy Komissarligining (UNCHR) Global Trends 2020 ma'lumotlariga ko'ra, Turkiya oxirgi yetti yil ichida dunyodagi eng ko'p qochqinni qabul qilgan davlatlardan biri bo'ldi. Bu esa afg'on migrantlari uchun asosiy donor davlat sifatida ko'rilishini anglatadi.

#### **FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR (REFERENCES)**

1. Abbasi-Shavazi, M.J., Glazebrook, D., Jamshidiha, G., Mahmoudian, H. and R. Sadeghi. (2005). Return to Afghanistan?. A Study of Afghans Living in Zahedan. Kabil: AREU.
2. Castles, S. and Miller, M. (2003). Göçler çağı modern dünyada uluslararası göç hareketleri, (trs. Bülent Uğur Bal ve İbrahim Akbulut). İstanbul: İstanbul Bilgi Üniversitesi Press.
3. Cumhuriyet Gazetesi, 5 Ağustos 1982.
4. Geyik, Y, S. (2018). Göç ve Afganlar "İstikrarlı Mülteciler". The Journal of Migration Studies, 4(2).
5. Haideh Moghissi and Afsaneh Ashrafi, "Afghans in Iran: Asylum Fatigue Overshadows Islamic Brotherhood," Global Dialogue 4.4 (2002).
6. Hazırlayan Emrullah Öztürk, "Türk asilli afgan mültecilerinin 12 eylül dönemi'nde iskân ve istihdami" Ankara 2014.
7. Kronenfeld, D. A. (2008). Afghan refugees in Pakistan İslam Cumhuriyeti: Not all refugees, not always in Pakistan İslam Cumhuriyeti, not necessarily Afghan? Journal of Refugee Studies, 21(1).

8. Stigter, E. (2006). Livelihoods upon return: afghan migratory strategies - an assessment of repatriation and sustainable return in response to the convention plus. *Refugee Survey Quarterly*, 25(2)
9. Turton, D. ve P. Marsden 2002 Taking Refugees for a Ride? The Politics of Refugee Return to Afghanistan. AREU Issues Paper Series, Afghanistan Research and Evaluation Unit, Kabul.
10. Watandar, S. (2020). Faryab Bölgesi. Erişim Adresi: <https://baztab.news/source/154> .
11. <https://www.tokattan.net/2021/02/afganistandan-tokata-bir-goc-hikayesi.html>